

Times High Education (THE) xalqaro reyting tashkiloti oliy ta'lim muassasalarining global, sohaviy reytingini olib boradi. Ushbu reytingda asosan oliy ta'lim muassasasidagi ta'lim sifati, akademik nufuz hamda akademik ta'sir, xalqaro munosabatlar hamda ilmiy tadqiqot ishlarni tijoratlashtirish kabilar e'tiborga olinadi.

Bundan tashqari, ushbu tashkilot oliy ta'lim muassasalarining BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlariga muvofiqligi bo'yicha reyting yuritadi. Toshkent davlat yuridik universiteti dunyoning TOP-500 ta universitetlari ro'yxatiga kirdi.

Buyuk Britaniyaning oliy ta'lim sohasiga oid muhim masalalarni yorituvchi va universitetlar faoliyatini baholab boruvchi Times Higher Education tashkiloti o'zining navbatdagi THE Impact Ranking reytingi natijalarini e'lon qildi.

Ushbu reytingda Toshkent davlat yuridik universiteti (TDYU) dunyoning 94 ta mintaqqa va davlatlaridan qatnashgan minglab universitetlar orasida 401-o'rinni egalladi. TDYU mazkur reytingda mamlakatimiz OTM orasida eng yuqori natijani qayd etdi.

TDYU THE Impact Rankings 7 ta yo'nalishida ishtirok etib, quyidagi natijalarni qayd etdi:

- SDG 4: Quality Education (ta'lim sifati) – 201-o'rinn;
- SDG 5: Gender Equality (gender tengligi) – 401-o'rinn;
- SDG 8: Decent Work and Economic Growth (munosib ish joyi va iqtisodiy o'sish) – 201-o'rinn;
- SDG 9: Industry, Innovation and Infrastructure (sanoat, innovatsiya va infratuzilma) – 401-o'rinn;
- SDG 10: Reduced Inequalities (tengsizlikni qisqartirish) – 401-o'rinn;
- SDG 16: Peace, Justice and Strong Institutions (tinchlik, adolat va kuchli institutlar) – 201-o'rinn;
- SDG 17: Partnerships for the Goals (barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi hamkorlik) – 401-o'rinn.